

O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

N. SH A R A F I Y E V A

F A U Z I Y A F A Y Z I

(ijodiy portretiga chizgilar)

Toshkent – 2005

- Muharrir - san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor D.A.Murodova
- Taqrizcilar - san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor A.X.Xakimova
san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b. I.G.Galushenko

O'zbekiston davlat konservatoriyasining ilmiy kengashi tomonidan nashr ettirish uchun tavsiya etilgan

Mazkur ocherkda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, o'zbek musiqa madaniyatining rivojiga o'zining beqiyos hissasini qo'shgan xormeyster, pianino ijrochisi, jo'rnavoz va o'qituvchi Fauziya Xabibrahmonovna Fayzining (1916 - 1997) hayoti va ijodi haqida hikoya qilinadi. F.X. Fayzining faoliyati o'zbek musiqa teatr san'ati rivojlanishida, o'zbek xalq musiqiy boyliklarini o'rganishda, o'zbek musiqachilarini tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

Ushbu nashr o'zbek musiqa madaniyatini o'rganishda oily o'quv yurtlari, litsey va kollej o'qituvchi va talabalariga hamda o'zbek musiqa san'atiga qiziquvchilar uchun tavsiya etilgan.

Onamning yorqin xotirasiga bag'ishlanadi.

MUALLIFDAN

O'zbekiston musiqa madaniyati tarixi sahifalariga zarxal harflar bilan bitilgan taniqli nomlarga boy. Respublikaning musiqa san'atida mashhur usta san'atkorlar orasida ko'p yillar mobaynida M.Ashrafiy, T.Jalilov, T.Sodiqov, N.Ahmedova, S.Qobulova, N.Xoshimov, S.Yarashev, G'.Toshmatovlardek madaniyat arboblari bilan birgalikda faoliyat yuritgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Fauziya Fayzi (1916 - 1997)ning o'rni alohida ajralib turadi. Fauziya o'zining sodiq mehnati, teatr repertuari borasida a'lo darajadagi bilimi bilan chuqur xurmatga sazovor bo'ldi va O'zbekiston musiqa madaniyatiga beqiyos hissasini qo'shdi. Yuqoriprofessional xormeyster, fortepiano ijrochisi, jo'rnavoz, o'qituvchi va jamoat arbobi, O'rta Osiyo musiqiy folklorining bilimdoni Fauziya Xabibrahmonovna Fayzi butun umrini musiqa san'atiga baxshida etdi. F.X.Fayzi tavalludining 90 yilligi arafasida o'quvchilarga taqdim etilayotgan ocherk o'sib kelayotgan yosh avlod uchun tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi, sevimli inson, ajoyib musiqachi shaxsi, O'zbekiston madaniyatiga sodiq bo'lgan san'at arbobi xotirasiga bo'lgan e'tiborni qaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Ocherkni yozishda muallif arxiv materiallari, F.X.Fayzi bilan bo'lgan ko'p yillik muloqot va zamondoshlarining xotirasiga tayangan.

N. S. SHARAFIYEVA

Fauziya Xabibrahmonovna Fayzining ijodiy faoliyati juda han o'zgacha va xodisalarga boydir. Musiqaga bo'lgan katta qiziqishi va iste'dodi unga bir nechta musiqiy ixtisosliklarni egallashga imkon yaratib berdi va natijada keng ko'lamli faoliyatga ega bo'ldi. F.X. Fayzining hayoti turli ijodiy jamoalar, musiqachilar, san'atkorlar, rejissyorlar, dirijyorlar, kompozitorlar bilan sug'orilgan. Fauziya Xabibrahmonovna taqdir taqozosi bilan ro'baro bo'lgan insonlar bilan muloqotda bo'lganda, uning o'ziga xos estetik qarashlari, ijodiy prinsiplari ijrochilik konsepsiyasining amalga oshish yechimlari va shaxsiy qarashlari shakllangan.

Fauziya Xabibrahmonovna 1916 yili Toshkent shahrida, ziyolilar oilasida tavallud topdi. Uning ota – onasi ma'rifatparvar va ilmlil insonlar bo'lishgan. Otasi Xabibraxmon Buxoro madrasasida ma'naviy ta'lim olgan bo'lib, O'rta Osiyo Davlat universitetida arab tili teologiyasi va kalligrafiyasidan dars berar edi. Onasi Alima juda ham ilmlil ayol bo'lgan, ko'p yillar mobaynida A.Navoiy nomidagi davlat kutubxonasida ishlagan. Kitoblarga bo'lgan muhabbat Fauziyaga otasidan o'tgan, uning otasi o'z davrida mufti vazifasida faoliyat olib borgan.

Bu xonadon juda musiqasevar oila edi. Dam olish paytlarida onasi xalq qo'shiqlarini xirgoyi qilib kuylasa, otasi unga skripkada beg'ubor jo'r bo'lar edi. Bolalik vaqtlaridanoq Fauziyani ma'naviy madaniy muhit o'rab turar, oilaning barcha farzandlari musiqaga qiziqishar, lekin, ixtisoslik sifatida turli sohalarni egallagan edilar. Fauziyaning ukasi Nodir harbiy uchuvchi, aviatsiya polkovnigi bo'lgan. Fauziyaning o'zi pianino ijrochisi bo'lishni orzu qilar va har bir bo'sh qolgan daqiqasini fortepianoda mashq qilish bilan o'tkazar edi. Fauziyada ijodiy qarashlar juda erta shakllandi, o'tib borayotgan hayotning turli ko'rinishlariga o'zining fikrini aniq bayon qila olardi. Musiqadan tashqari Fauziya adabiyotga ham qiziqardi, umumta'lim maktabida muvaffaqiyatli o'qish bilan bir qatorda fortepiano ijrosi bo'yicha toshkentlik pianinochi o'qituvchilar sinfida shug'ullanar edi. Ustozlari undan juda mamnun edilar. Qisqa vaqt ichida Fauziya maktabning deyarli butun pedagogik repertuarini o'zlashtirib bo'lgan edi. U ishtiyoq bilan Bax, Gaydn, Motsart, Betxoven, Shopen, List asarlarini ijro etardi. Uylariga ota – onasining do'stlari kelishganida ularni doim yosh pianinochi tomonidan tayyorlab qo'yilgan konsert kutib turardi.

1931 yili ularning oilasi Alma–Ataga ko'chib ketadi va Fauziya yaqinlariga moddiy yordam berish maqsadida ishga joylashadi. Mutaxassislik tanlashda unga Toshkentda olgan fortepiano ijrochilik maktabi qo'l keladi. Shunday qilib Fauziya 15 yoshida Qozoq radiostudiyasida pianino ijrochisi sifatida o'zining ish faoliyatini boshlaydi. Deyarli har kuni erta tong soat 5 da radioeshittirishni boshlash uchun bir soat oldin turib, piyoda yurib radiostudiyaga borishga to'g'ri kelardi. Fauziya xonanda va cholg'uchilarga jo'rnavozlik qilar hamda turli hil radioeshittirishlar uchun fortepiano asarlarini ijro etardi. Uning ishi juda qiziq shu bilan birga mas'uliyatli edi, chunki yosh pianinochining ijrosini butun Qozog'iston tinglar edi.

1932 yili taqdir Fauziyani Qozon shahriga yetaklab keldi, bu yerda u kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tib, tatar san'at texnikumining fortepiano bo'limiga o'qishga kirdi. Fauziyaning professional pianino ijrochisi bo'lish orzusi asta – sekin amalga osha boshladi. O'qishni tugatgach Fauziya 1935 yili Alma – Ataga qaytib keldi va bir yil davomida Qozoq radiokomitetining milliy sektorida xor rahbari va fortepiano ijrochisi bo'lib ishladi. Fauziyaning xormeysterlik vazifasi mutlaqo tasodifan, taqdir taqozosi bilan boshlandi. Radiokomitet xoriga rahbar talab qilinayotgan, jamoa ilojisizlik ahvolidagi qolgandi. Shunda Fauziya jamoasiga achinganidan tashabbusni o'z zimmasiga oldi. Fauziyada tabiatan xormeysterlik sifatleri, tashkilotchilik qobiliyati, nozik eshitish qobiliyati bor edi va unda xorga rahbarlik qilish ashaddiy istagi paydo bo'ldi. 1936 yili o'qishni bilim yurtining fortepiano bo'limida davom ettirish maqsadida Qozon shahriga qaytib keldi. Bilim yurtida o'qish davrida Fauziya imkon qadar ko'proq bilim egallashga intilar edi. U ko'p

musiqa tinglar, konsertlarda ishtirok etar, estetik, falsafiy, psixologik adabiyotlarni ishtiyoq bilan mutolaa qilardi. Uning juda ham ko'p do'stlari bo'lib, ijodiy do'stlikning mustahkam aloqalari Fauziyani Salix Saydaliyev, Farit Yarullin, Rustam Yaxinlar bilan bog'lab turardi.

1938 yili Fauziya bilim yurtini imtiyozli (a'lo bahoga) bitirib, Toshkentga (bu paytda Fauziyaning oilasi Toshkentda istiqomat qilardi) qaytib keldi. Shu vaqtdan boshlab T.Jalilov rahbarligidagi O'zbekiston davlat filarmoniyasida pianinochi – jo'rnavoz va etnografik ansambl xormeysteri sifatida ish faoliyatini boshladi. Jamoadagi bu faoliyat Fauziyaning musiqiy rivojlanishini boyitdi va keyingi professional o'sishida keng imkoniyatlar yaratdi. Ansambl O'zbekiston bo'ylab ko'p gastrol safarlariga chiqar, respublika viloyatlariga uyushtirilgan safar vaqtida uning ijrochilari musiqiy folklor namunalarini yig'ish va qayta ishlash bilan shug'ullanar edilar. Jamoaning repertuari asosan O'rta Osiyo xalqlarining ijodi asosida tuzilgan bo'lib, muntazam ravishda yangi qayta ishlangan kuylar, aranjirovkalar bilan to'ldirilib turardi. Doimo xalq ijodini o'rganishga intilgan Fauziya bu jarayonga faol kirishib ketdi. Ayniqsa, Xorazm vohasi va Qoraqalpog'istonga uyushtirilgan gastrol safari vaqtida Fauziya ko'pgina qadimiy xalq kuylarini yozib olishga muvaffaq bo'ldi. Ko'p ustunli Juma masjid, Ichon – qal'a, Pahlavon Mahmud maqbaralarining nozik mahorat bilan ishlangan naqsh bezaklari uning xotirasida unutilmas taassurotlar qoldirdi. Xorazm san'ati Fauziyani o'zinig jozibadorligi bilan hayratga soldi. Xorazm xalq musiqiy folklori Fauziyani o'zining betakror koloriti, yorqinligi, o'ynoqiligi, jonli nafasi va optimistik jihatlari bilan lol qoldirdi. Bundan tashqari Fauziyaning asosiy e'tiborini, O'zbekistonning boshqa viloyatlarida mavjud dutorlardan farq qiluvchi Xorazm dutori o'zinig tuzilishi va tembr – akustik jihatlari bilan o'ziga jalb etdi.

Qoraqalpog'istonda Fauziya doston aytuvchilari – jirau va baxshilarning san'atini katta ishtiyoq bilan o'rganardi. Qoraqalpoq dostonlarini tinglar ekan, ularning o'ziga xos maishiy qo'shiq, ashulalarni, cholg'u kuylarini yozib olardi. To'lqinlantiruvchi, ilhomlantiruvchi "Bozatau" qo'shig'i uning qalbida chuqur his uyg'otdi. Xorazm va Qoraqalpog'iston safari xususidagi taassurotlarni Fauziya "Krasniy Karakalpakstan" gazetasining o'quvchilari e'tiboriga havola etdi: "Xorazm viloyatida men 18 ta qadimiy xalq kuylarini yozib oldim, ko'plari asosan hazil – mutoyiba va muhabbat mavzulariga xos. Hozirda bu kuylarga Xorazm xalqi yangi qo'shiqlarni, ya'ni baxtli qishloq hayoti tasvirlangan qo'shiqlarni to'qimoqdalar. Men tomondan yig'ilgan kuylar, doimo raqslar bilan jo'r bo'luvchi, musiqiy hamda tinglovchiga tez yetib boruvchi asarlar. Filarmoniyaning folklori kabinetida kompozitor va rejissyorlarning qayta ishlovidan keyin xalq miniatyuralari o'zbek teatrlari repertuari, konsert jamoalari hamda bizning ansamblda ham munosib o'rnini topadi. Afsuski, qoraqalpoq musiqiy va vokal folklorini yig'ish va ularni qayta ishlash borasida juda ham oz ishlar amalga oshirilgan. Hatto bizning etnografik ansamblimiz repertuarida ham qoraqalpoq xalq ijodiyotining yorqin namunalari umuman mavjud emas. Bu bo'shliqni biz Qoraqalpoqqa kelganimizdan foydalanib to'ldirib olmoqchimiz. Bu yerda ham xuddi Xorazm viloyatidagi kabi folklorlarni yig'ish bilan mashg'ul bo'lishni, eng yaxshi xalq kuylarini yozib olishni va raqslarni o'rganishni ko'zlab turibman. Hozirda respublika bo'yicha badiiy havaskorlik olimpiadasiga tayyorgarlik o'tkazilayotgan bir paytda bunday ishlar uchun sharoitlar yetarli darajada. Men o'z ishimda Qoraqalpoq San'at boshqarmasi, Stanislavskiy nomidagi teatr artistlari, ijro jamoalari va boshqa xalq qo'shiqchi – ijrochilaridan yordam olish va qo'llab turishlarining umididaman."¹ O'zbek, qozoq, uyg'ur, qoraqalpoq musiqiy folklorining o'ziga xoslik jihatlarning nozik bilimdoni Fauziya Fayzi ijodi bilan xalq qo'shiqchilik amaliyotida o'z o'rnini topgan ko'p qirrali talqinni, kuy ritmik aylanmalarni tadbiq etib, har doim o'rta Osiyo xalqlarining folklorini o'rganar edi. Ansamblning samarali konsert dasturi Katta Farg'ona kanalining qurilishi davriga to'g'ri keldi. O'rta Osiyo xalq qo'shiqlarining qayta

¹ Qoraqalpoq musiqiy va vokal folklorini yig'ish. Jo'rnavoz Fauziya Fayzi bilan suhbat. "Krasniy Karakalpakstan", 1939, 28 may.

ishlangan namunalari orasida muhim o‘rin egalaydiganlari, konsertlarda quruvchilarga ulkan estetik quvonch baxsh etar va og‘ir mehnatlariga ruhiy madad berar edi.

1939 yili Toshkentda Muqimiy nomidagi O‘zbek davlat musiqali drama va komediya teatri ochildi. Uning badiiy rahbari etib taniqli ustoz san’atkor T.Jalilov tayinlangan edi. 1940 – 1948 yillar mobaynida F.Fayzining faoliyati asosan shu teatr bilan bog‘liq bo‘ldi. Fauziya teatrga ustoz san’atkor To‘xtasin Jalilov tomonidan, pianino ijrochisi – jo‘rnavoz hamda xormeyster sifatida ishga taklif etilgan edi. Bu davr mobaynida u T.Jalilov va G.Sobitovalarning “Nurxon”, T.Jalilovning “Tohir va Zuhra”, T.Jalilov va G.Shlerlinglarning “Do‘stlar”, “Farg‘ona qissasi”, Xojibekovning “Qizil gul” kabi musiqiy spektakllarning sahnalashtirilishida samarali va faol ishtirok etadi. Bundan tashqari F.Fayzi I.Kalmaning “Boyaderi”, N.Lisenkoning “Natalka - poltavka”, N.Strelnikovning “Xolopka”, S.Rustamovning “Besh so‘mlik kelin” spektakllarining o‘zbek tilida sahnalashtirilishida ham ishtirok etgan. Respublika teatr hayotida 1942 yili Toshkentga tashrif buyurgan taniqli azarbayjon kompozitori Seid Rustamovning “Besh so‘mlik kelin” musiqiy komediyasining premyerasi qiziqarli hodisa bo‘ldi. M.Ordubadaning librettosi o‘zbek tiliga O‘zbekiston xalq shoiri G‘.G‘ulom tomonidan tarjima qilingan. Spektaklni sahnalashtirish tayyorgarligi mobaynida rejissyor Z.Qobulov va dirijyor X.To‘xtasinovlar qatnashgan. Fauziya Fayzi S.Rustamov asarining sahnaviy ifodasida xormeyster va jo‘rnavoz sifatida o‘zining katta tashabbusini namoyon etdi. O‘tkir komediyali syujet, aktual mavzu, quvnoq, hayotiy va yorqin musiqa bu komediyaga katta muvaffaqiyat keltirdi. Ozarbayjon yoshlari hayotining realistik namunasi ta’limga, yangi hayot nuriga intilishi o‘zbek tomoshabinlariga hamohang va yaqin edi. Ular ommaviy sahnalar jozibadorligini, orkestr rang – barangligini, quyuq janrli koloritlar bilan ushbu spektakl uchqunini jonli va ehtirosli qabul qilgan. “Besh so‘mlik kelin” katta muvaffaqiyatga erishdi, bu esa kompozitorni benihoya quvontirar edi. Bir necha yillar o‘tgach esa asar muallifi Fauziya Xabibrahmonovnaga o‘zining chuqur ehtirom izhor etilgan maktubini yubordi. Ana shunday muvaffaqiyatlar bilan Muqimiy nomidagi teatrda F.Fayzining xormeysterlik iste’dodi yorqin namoyon bo‘ldi. Xor jamoasi bilan ishlar ekan, Fauziya ularga ko‘p ovozlilikning o‘ziga xoslik jihatlarini o‘zlashtirishga yordam berardi. O‘zbek musiqali drama va komediya xorlari ikki ovoqli bo‘lganligi sababli, Fauziya Xabibrahmonovna uning qo‘shiqchilariga ovozlarni his etishni o‘zlashtirishga, spektakl xarakteriga mos bo‘lgan an’anaviy kuylash yo‘llarini, “nola”, “qochirim” unsurlarini qo‘llash hisobiga xor yangrashlariga milliy koloritni kiritishga intilar edi. Teatr artistlaridan Tursunoy Jafarova, T.Nazarova, Farog‘at Rahmatova, E’tibor Jalilova va boshqalar Fauziya Fayziga juda ham katta hurmat bilan munosabatda bo‘lishardi va o‘zlari uchun ustoz deb hisoblashardi. Muqimiy teatrida ishlagan ajoyib va ustoz musiqachi G‘.Toshmatov bilan Fauziya Fayzini ijodiy do‘stlik bog‘lab turardi.

Fauziya Fayzi viloyat musiqali teatr artistlariga spektakl musiqalarini o‘rganishda katta ijodiy ko‘mak ko‘rsatardi. O‘zbekistonning ko‘pgina musiqali drama teatrlari spektaklning sahnalashtirilish ishlarini amalga oshirishda: yakkanavoz, ansambl xor jamoalari bilan vokal partiyalarini o‘rganishga Fauziya Fayzini taklif qilishardi. Ushbu masala bilan u bir necha marotaba Farg‘ona, Xorazm viloyatlari, Qoraqalpog‘iston, O‘sh va Xojikentlarda bo‘lib qaytgandi. Farg‘ona viloyatining musiqali drama teatrida F.Xabibrahmonovna “Nurxon” va “Besh so‘mlik kelin” spektakllarining sahnalashtirilishida ishtirok etgan bo‘lsa, O‘sh o‘zbek davlat teatrida “Tohir va Zuhra”, “Maysaraning ishi”, “Notalka - poltavka” spektakllari ustida ishladi. Uning ishlari xususida Farg‘ona, O‘sh, Namangan, Andijon, Xojikent musiqali teatrlari katta hurmat va ehtirom bilan eslashadi. Jumladan, Komil Yashinning “Nurxon” pyessasi premyerasi haqida Namangan matbuoti quyidagilarni ta’kidlaydi: “T.Jalilovning folklor kuylari bilan sug‘orilgan musiqasini zal tinglovchilariga yetkazib berishda jo‘rnavoz Fauziya Fayzi

tomonidan katta ishlar bajarilgan” • T.Jalilov bilan birgalikda ijodiy faoliyat o‘z navbatida Fauziya Fayzi uchun o‘zbek xalq kuy va qo‘shiqlarining nozik melizmatika (bezak)larini o‘zlashtirishda katta maktab vazifasini o‘tash bilan birga, keyinchalik yakkanavoz va xor jamoalari bilan ishlashda o‘z mahsulini, hamda T.Jalilov ijrochilik an‘analarining “davomchisi” bo‘lish imkoniyatini yaratdi.

1948 yili F.Fayzi Toshkent davlat konservatoriyasining xor dirijyorligi fakultetiga professor V.I.Knyazyatov sinfida o‘qishiga yo‘llanma berildi. Ajoyib ustoz – xormeyster Valentin Ivanovich Knyazyatov qobiliyatli F.Fayziga Muqimiy teatrida xormeyster bo‘lib ishlab yurgan vaqtlaridayoq e‘tibor qaratgan va unga konservatoriyaga o‘qishga kirishni maslahat bergan edi. Fauziya talaba bo‘lgach esa uni o‘z sinfiga mamnuniyat bilan qabul qildi. Konservatoriyada o‘qish yillarida xor san‘ati yo‘nalishidagi yuqorimalakali mutaxassislar bilan bo‘lgan muloqot F.Fayzining ijodiy faoliyatida yangi qirralarni ochib berdi. 1953 yili konservatoriyani tugatgach F.Fayzi A.Navoiy nomidagi opera teatriga xormeyster sifatida ishga yuborilib, u yerda 1960 yilga qadar badiiy rahbariyat tarkibida ishladi. U uchun bu juda ham sermahsul ijod davri bo‘ldi. Teatrda ishlagan yillari mobaynida F.Fayzi 20 dan ortiq jahon va o‘zbek opera klassikasi spektakllarining sahnalashtirilishida xormeyster sifatida ishtirok etdi. Bular orasida J.Bizening “Karmen”, “Javohir qidiruvchilar”, Sh.Gunoning “Romeo va Julietta”, J.Verdining “Traviata”, “Trubadur”, “Rigoletto”, J.Puchchinining “Gloriya Toska”, “Chio-Chio-San”, P.I.Chaykovskiyning “Mazepa”, “Yevgeniy Onegin”, M.Ashrafiyning “Bo‘ron”, “Dilorom”, R.Glier va T.Sodiqovlarning “Gulsara”, “Layli va Majnun”, G.Mushel va V.Uspenskiylarning “Farhod va Shirin”, T.Jalilov va B.Brovtsinlarning “Tohir va Zuhra” va boshqa operalar.

Bu davr opera teatrining eng gullagan yillari edi. F.Fayzi M.Ashrafiy, M.Turg‘unboyeva, X.Nosirova, F.Boruxov, N.Ahmedova, K.Zokirov, M.Rahmonov, K.Davidova, F.Shamsutdinov, M.Musayev va E.Yungvild-Xilkevichdek o‘zbek musiqa san‘atining eng ko‘zga ko‘ringan arboblari bilan ishlash baxtiga musharraf bo‘ldi. Yetuk san‘at arboblari, mustahkam professional tayyorlangan, keng va turli xil repertuarni amalga oshirishga qodir bo‘lgan vokalistlar xormeysteriga juda ko‘p narsa berdi. Tajribali mutaxassis N.Priselkov bilan bo‘lgan muloqot xor an‘analarining yangi yechimlarini, xor san‘atining esa yangi tembr imkoniyatlarini izlashga turtki bo‘ldi. Bosh xormeyster Lev Mixaylovich Shamshin bilan birgalikda Fauziya Fayzi “Bo‘ron”, “Layli va Majnun”, “Tohir va Zuhra”, “Dilorom” operalarining sahnalashtirilishida ishtirok etgan. “Verter”, “U podnoyja Sayan”, “Maysaraning ishi” operalarining sahnalashtirilishida esa Fauziya Xabibrahmonovnaning o‘zi bosh xormeysterlik vazifasini bajargan. Teatrning kuchli jamoasi F.Fayzidan professional mukammallikni, to‘xtovsiz izlanishni va maqsadga muvofiq bo‘lgan ishni talab qilardi. A.Navoiy teatridagi ilk ishlaridan biri, 1953 yili namoyish etilgan “Karmen” operasi edi. Fauziya bu operani juda sevardi va uni boshidan oxirigacha yoddan bilardi, ammo xormeyster V.Popov bilan spektaklni sahnalashtirish ishlarini boshlagach, xormeysterlik vazifasi qanchalik mushkul va mas‘uliyatli ekanligini tushunib yetdi. Jahon san‘ati durdonalariga murojaat etish doimo ko‘p izlanishlarni taqozo etadi. Mashhur operadan yangi yechimlarni topish oson kechmadi. F.Fayzi xor sahnalariga hayotiy ishonchni kiritishga harakat qilardi. Eskamilyo rolini ijro etgan Nasim Xoshimov, Karmen rolidagi Knesiya Davidova bilan bo‘lgan ijodiy muloqot qiziq sahnalarni, ansambl va xor epizodlarining original yechimlarini topishda yordam berdi. “Karmen” operasining muvaffaqiyatli namoyishi F.Fayzinig yangi faoliyatiga yo‘l ochib berdi va 1954 yili u murakkab bo‘lgan P.Chaykovskiyning “Mazepa” va R.Glier va T.Sodiqovlarning “Layli va Majnun” operalarining premyerasida ishtirok etdi. Ayniqsa xormeyster L.Shamshin bilan hamkorlikda ishlagan “Layli va Majnun” operasi sermahsul bo‘ldi. “Layli va Majnun” lirik

• G.Puzis “Nurxon”. Premyera v oblastnom uzbekskom teatre imeni Navoi. Namanganskaya pravda. 1946.

janrdagi operadir. Operadagi xodisalarga vazminlik xos bo'lganligi sababli asar dramaturgiyasida muhim o'rin tutadigan ko'p ovoqli xorlar uchun xormeysterlardan faol izlanishlarni talab qilar edi. Spektaklda ko'tarinki kayfiyat bilan ajralib turuvchi ommaviy sahna ko'proq muvaffaqiyatga erishdi. Uchta xordan iborat bo'lgan bu sahna juda ifodali yangradi: birinci xor "Navro'z" olti ovoqli bo'lib, unda birin – ketin ovoqlar kamayib boradi. F. Fayzi "Navro'z" xorining tovush xususiyatlari uchun nozik dinamik jihatlarini topa oldi. Spektakl tayyorgarligi jarayonida Fauziya Xabibrahmonovnani Layli partiyasini ijro etgan yakkanavozlar Xalima Nosirova va Nazira Ahmedova, Qays rolini ijro etgan Sattor Yarashev, Ibn Salom partiyasini kuylagan Asad Azimovlar bilan ijodiy muloqot bog'lab turardi. Spektakl ish jarayonini eslab, xalq artisti Xalima Nosirova quyidagilarni bayon qiladi: "Fauziya Fayzi o'zbek vokal kuylarining juda ham nozik bo'lgan o'ziga xoslik jihatlarini borasidagi chuqur bilimi meni hayratga soldi. Aynan shu bilimi tufayli u xor sahnalarida kerakli bo'lgan milliy koloritni ifodalab berishga erishdi, to'y sahnasida kuylaydigan xor bunga misol bo'la oladi. Fauziya Fayzi qo'shiqchilarga juda talabchan edi va biz uning har bir maslahatiga, o'gitlariga itoat qilar edik"¹.

1955 yildagi T. Jalilov va B. Brovtsinlarning "Tohir va Zuhra" opera premyerasi F. Fayzining ijodiy faoliyatida muhim bosqichlardan biri sifatida muhurlandi. L. Shamshin bilan hamkorlikda F. Fayzi xor sahnalarining yorqin ehtirosli ifodaviyligini, ularning psixologik mohiyatini ochib berishga harakat qildi. Ayniqsa, Nizomga murojaat etayotgan "Omon" xori ta'sirchan ijro etilgandi. Bu xor shoirona va hayajonlantiruvchi uyg'ur xalq qo'shig'i asosida o'zining yangi qirralarini kashf etdi. Spektaklning sahnalashtirish jarayonida F. Fayzi Tohir partiyasini kuylagan va rolini ijro etgan Karim Zokirovdek ajoyib qo'shiqchi bilan ishlash baxtiga musharraf bo'ldi. Karim Zokirov bilan ishlash juda qiziqarli edi, chunki u mo'jizaviy artist, betakror, shijoatli va qudratli inson edi. "Tohir va Zuhra" spektakli juda ham katta mashhurlikka ega bo'lgandi, tomoshabinlarga T. Jalilov tomonidan bastalangan qo'shiqlar, artistlarning samimiy ijrolari hamda xor sahnalari manzur bo'lgandi.

F. Fayzi va L. Shamshinning muvaffaqiyatli xormeysterlik ishlari orasida G. Mushel va V. Uspenskiyning "Farhod va Shirin" opera namoyishini alohida aytib o'tish lozim. Mazkur operada xor sahnalari asosiy dramatik o'rinni bajargan va xormeysterlarning ijodiy izlanishlarida muhim material bo'lib xizmat qildi. Operaning birinchi ko'rinish birinchi sahnasida Farhod bilan uchrashishga tayyorgarlik ko'rayotgan xitoy imperatori saroyida bo'lib o'tayotgan voqeda ikkita xor ishtirok etadi. Birinchi xor parda ortida avval jo'rnavozsiz, so'ng orkestr jo'rligida kuylasa, ikkinchi xor sahnada kuylaydi. Xorlarning bu ketma-ketligi orqali F. Fayzi va L. Shamshin xalq xursandchiligi va shodiyonasini ko'rsatib berishgan. Ayniqsa, kuy asosida "To'lqin" nomli buxoro mashhur qo'shig'i bo'lgan "Mehmonlar" xori yorqin va koloritning bir-biriga uyg'unlashtirilgan holatida ijro etilgan. Orkestr qo'llab turuvchi umumiy xor esa yaxshilik, hayot an'analari va yerdagi yorug'likning gumanistik g'oyalarini ilgari surgan holda yangragan.

O'zbek musiqa madaniyatida 1958 yil 5 fevral kuni bo'lib o'tgan M. Ashrafiyning "Dilorom" opera premyerasi katta hodisa bo'ldi. Muallifning o'zi dirijyorlik qilgan spektakl juda tomoshabinbop bo'ldi. Spektaklning muvaffaqiyatga erishishi, uning sahnalashtirishida teatrning asosiy kuchi jalb etilganligidadir: bosh rejissyor E. Yungvild-Xilkevich, bosh rassom Meli Musayev, bosh xormeyster L. Shamshin va xormeyster F. Fayzi. Baxrom rolini Karim Zokirov qoyilmaqom qilib, Dilorom obrazini esa Saodat Qobulova maromiga yetkazib ijro etdilar. Spektaklning xor sahnalari esa haqiqatdan ham hayratlanarli darajada edi. A. Korsakova ta'kidlaganidek "Rejissyor, bosh xormeyster L. M. Shamshin va xormeyster Fauziya Fayzining sa'i – harakatlari tufayli, ular jada ham harakatchan to'liq hayotiy namoyon bo'lgan edilar"².

¹ Muallifning O'zbekiston xalq artisti X. Nosirova bilan 1997 yildagi suhbatidan.

² Korsakova A. uzbekskiy operniy teatr. Ocherk istorii. T., 1961, 416 s.

Birinchi ko‘rinishning ikkinchi sahnasida ikki ovozi ayollar xori hayratlanarli darajada yengil va mayin yangragan edi. Xorazm xalq qo‘shiqlarining talqinlari xor fakturasida nozik ifodaviy harakatlar, jozibali shtrixlar bilan talqin etilgan. Bu yerda F.Fayzi ayollar xoriga betakror koloritni kiritib, xorazm qo‘shiqchilik san‘ati a‘analarining chuqur bilimdoni ekanligini namoyon etdi. Ayniqsa xorning Dilorom bilan birgalikdagi ansambli qoyilmaqom darajada ijro etildi. Sahnada S.Qobulova betakror kuylagan edi, uning mayin, lirik ovozi ifodali, nozik-psixologik jihatlar bilan mujassamlangan. “Fauziya Fayzi, - deb eslaydi O‘zbekiston xalq artisti S.Qobulova, - musiqiy obrazlarning sahnaviy ijrosiga ajablantiruvchi nozik ifoda vositalarini topa oldi. U o‘zbek folklorini, o‘zbek an‘anaviy musiqasining melizmatikalarini (bezaklarini) chuqur bilardi va ularni zor sahna ijrolarida qo‘llay olardi. F.Fayzi bilan ishlash, biz qo‘shiqchilarni doimo boyitardi, vokal ijrochilik san‘atidagi yangi izlanishlarga intiltirar edi.”¹

To‘rtta epizoddan iborat bo‘lgan spektaklning ikkinchi ko‘rinishidagi “Bozor” xor sahnasi qiziqarli va hayotiy o‘ylab chiqilgan. Professor L.Jumayeva ta’kidlaganidek: “Kontrast nyuanslarning katta dinamik harakatlar uyg‘unlashuvi bilan taqqoslanishi ijro uchun talaygina qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi”².

Xormeysterlar ko‘pgina texnik va ifodali masalalarni muvaffaqiyat bilan uddalashdi va alohida xor guruhlarining ketma-ketligi orqali ulkan janr sahnasini yarata oldilar. Turli hil divizlar orqali ifodalangan “Bozor” sahnasi haqiqiy va hayotiy qilib tasvirlab berilgan. Opera finalida esa xor oliy darajada ijro etilib, spektakl g‘oyalari o‘zining hayotiy tasdig‘ini topdi. A.Navoiy nomidagi teatrdagi ishlagan yillari F.Fayzi shu darajada ajoyib xormeyster sifatida shakllandiki, usiz deyarli birorta ham spektakl sahnalashtirilmas edi. Irodali, qat’iy shu bilan birga sezgir va jamoadoshlariga juda ham mehribon Fauziya Fayzi ijro vaqtidagi murakkab jarayonlarda ijrochilarning ruhini ko‘tara oladigan so‘zlarni topa olardi.

Intizomli, vazmin, oqila Fauziya Fayzining har bir fikri, gaplari mushohadali va teran edi, jamoadoshlari orasida avtoriteti juda baland edi. Uning fikriga nafaqat xonanda – ijrochilar, balki rejissyor, dirijyor, sahanashtiruvchilar ham itoat qilishardi va doimo unga maslahat bilan murojaat qilishardi. T.Sodiqov, B.Zeydman, Yu.Rajabiy va

D.Zokirovlarning “Zaynab va Omon” operasining sahnalashtirilishida F.Fayzi o‘zining yuqori professional xormeysterlik sifatlarini namoyon etdi. Xormeysterlarning ishlari xususida quyidagilar ta’kidlangan edi: “Operaga juda ko‘p xorlar kiritilgan bo‘lib, ular ham sahnada, kerakli joyda esa parda ortida ham kuylashadi, ba’zida ko‘rinishning o‘zida ishtirok etishgan bo‘lsa, ba’zida bo‘lib o‘tayotgan xodisalarni aniqlashtirib beradi....

Xormeysterlar L.Shamshin va F.Fayzi kompozitorlardan yetarlicha ma’lumot olishga va ulardan kerakli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar”³.

“Zaynab va Omon”da xor muhim dramatik o‘rinni tutadi, ko‘rinishda faol ishtirok etib hamda xodisalarni xorning emotsional ta’sirini namoyon etadi. Bu spektaklda ham xor ham sahnada, ham parda ortidan kuylaydi. Alohida aytib o‘tish joizki, operaning beshinch (final) ko‘rinishida xor juda ta’sirchan ijro etilgan. Ijroda F.Fayzi “Yor-yor” va “Muborak” kuylarining milliy o‘ziga xoslik jihatlarini yorqin ochib bera oldi va ularni folklor namunalariiga yaqinlashtira oldi. 1959 yili opera teatrining jamoasi Moskva shahrida o‘tkazilgan O‘zbekiston san‘ati va adabiyoti 3-dekadasida ishtirok etdi. Teatrning opera va balet spektakllariga Moskva tomoshabinlari tomonidan yuqori baho berildi. Toshkentga qaytib kelgach esa teatrga Akademik degan nom berildi, ko‘pgina artistlarga ordenlar topshirildi va faxriy unvonlar bilan taqdirlandilar, ularning orasida O‘zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo‘lgan Fauziya Fayzi ham bor edi. Fauziya Fayzining ijodiy ishlariga berilgan yuksak baho uni yangi ijodiy fikrlar va g‘yalarga undadi va taqdir unga o‘z istedodini yangi – ustozlik borasida namoyon etishga imkon berdi.

¹ Muallifning O‘zbekiston xalq artisti S.Qobulova bilan 2004 yildagi suhbatidan.

² Jumayeva L., Baxriddinova N. Uzbekskaia xorovaya literature (1960-1985) T., 1987 . s 9.

³ Korsakova A. Uzbekskiy operniy teatr, s.375

1960 yili F.Fayzini Ostrovskiy nomidagi (hozirgi M.Uyg‘ur nomidagi san‘at instituti) teatr va rassomchilik institutida qaytadan ochilgan musiqiy yo‘nalishlar kafedrasini boshqarishga taklif qilishadi. Musiqiy yo‘nalishlar kafedrasining mudiri sifatida F.Fayzi 1976 yilga qadar ishlaydi. Shu yillarda kafedra katta ijrochilik (sahnaviy) va ustozlik tajribasiga ega o‘qituvchilar bilan ta‘minlangan edi. Ular orasida O‘zbekiston xalq artisti A.Azimova, xizmat ko‘rsatgan artist S.Xo‘jayeva, o‘qituvchilar S.Ro‘zmatova, R. Arzumanov, N. Vildelband, L.Leyn, B.Sokollarning nomlarini aytib o‘tish mumkin. F.Fayzi qo‘l ostidagi kafedraning yuqoriprofessional o‘qituvchilari mavjudligi tufayli ko‘pgina iqtidorli teatr va kino astistlari yetishib chiqdilar. Ular bugungi kunda mashhur va xalqning sevimli aktyorlaridir. Bular – O‘zbekiston xalq artisti Xusan Sharipov, Baxtiyor Ixtiyorov, Maryam Yoqubova, Naima Po‘latova va ko‘pgina mashhur artistlar O‘zbekistonning musiqali drama teatrlarida faoliyat olib bormoqdalar.

Musiqiy teatrlardagi ko‘p yillik tajribaga ega hamda O‘rta Osiyo folklorining chuqur bilimdoni F.Fayzi spektakllarni sahnalashtirishda nafaqat o‘qituvchilarga, balki talabalarga ham o‘zining qimmatli maslahatlarini berardi. Teatr institutining bir qator o‘quv spektakllariga musiqiy muharrirlik F.Fayzi tomonidan amalga oshirilgan.

“Pobeda” nomli Feodosey gazetasiga bergan intervyuda F.Fayzi shunday deydi: “Biz o‘qituvchilar o‘z talabalarimizni qardosh respublikalar teatrlaridagi repertuarlar bilan tanishtiramiz. Masalan, musiqiy dramatik bo‘limining rahbari R.Xamroyev bilan hamkorlikda azarbayjon kompozitori Seyid Rustamovning o‘zbek tilidagi “Besh so‘mlik kelin” spektakli, tojik kompozitori Soliyevning “Sinu pora jenitsya”, ukrain kompozitori Lisenkoning “Natalka - Poltavka”, o‘zbek kompozitori Muhammedovning qoraqalpoq tilidagi “Miliye devushki” spektakllari. Qozoq bo‘limi talabalari esa Qozog‘iston kompozitori Brusilovskiyning “Kiz Djibek” diplom dramatik spektaklini tayyorlashdi. So‘zimning yakunida shuni aytib o‘tmoqchimanki, Toshkent teatr va rassomchilik instituti hozirda mavzuiy “Xalqlar do‘stligi” nomli konsert – ma‘ruza tayyorlashmoqda”.¹

1966 yili musiqiy jamiyat Fauziya Fayzi tavalludining 50 yillik yubileyini nishonladi, shu munosabat bilan konsert, spektakllar uyushtirildi va matbuotda uning musiqa san‘ati yo‘nalishida erishgan yutuqlari va ustozlik faoliyatini yorituvchi maqolalar chop etildi².

1976 - 1984 yillar mobaynida F.Fayzi kafedrada dotsent lavozimida ishladi, yosh mutaxassislarni tarbiyalashda o‘zining boy tajribasini o‘rgatishda davom etdi. M.Uyg‘ur nomidagi san‘at institutining birinchi prorektori, dotsent Muhsin G‘aniyev teatr institutida o‘qigan yillarini eslab quyidagilarni hikoya qiladi: “Fauziya Xabibrahmonovna ajoyib inson edilar. Qattiqqo‘l, irodali shu bilan birga mehribon ayol edilar. Aktyorlik mahoratini o‘rganish vokalni o‘rganishni ham taqozo etadi. F.Fayzi mening vokal ijrochiligidagi mahoratimni yuqori baholardi va doimo konsertlarda ishtirok etishga jalb etardilar. Shuni eslaymanki, bizning institutimiz talabalari Beloruss teatr institutining talabalari bilan hamkorlikda spektakl tayyorlayotgan va hammamiz birgalikda mashhur “Siniy platochek” qo‘shig‘ining kuyiga talabalar qo‘shig‘ini kuylayotgan edik. Ularning ko‘rsatmalari tufayli xor kuylari aniq, yorqin va yuqori badiiy natijaga erishilardi. F.Fayzi Sharq xalqlari musiqiy folklorining o‘ziga xos jihatlarini yaxshi bilardi, o‘z navbatida bu uning xormyesterlik amaliyotida qo‘l keldi. Shuni qo‘shimcha qilib aytmoqchimanki, mening otam G‘anijon Toshmatov Fauziya Fayzi bilan Muqimiy teatrida ishlaganlar. Ular tengdosh bo‘lishgan va uzoq yillar mobaynida ularni ijodiy do‘stlik, umumiy estetik tamoyillar bog‘lab turardi”³.

¹ F.Fayzi zaslujennaya artistka Uzbekistana. Pobeda, 1972, 17 marta

² Saidova A. Xurmat ko‘rsatgan san‘atkor. Toshkent xaqiqati., 1966. 18 aprel.

³ Muallifning Muhsin G‘aniyev bilan 2005 yildagi suhbatidan.

Kafedrada ishlagan yillari Fauziya Xabibrahmonovna vokal aktyorlik maktabini tashkil ettirdi, yosh mutaxassislarda xalq san'ati an'alariga nisbatan muhabbat hissini tarbiyalardi. F.Fayzi asosiy e'tiborni milliy kadrlar orasidan yosh o'qituvchilarni yetishtirib chiqarishga qaratardi. Kafedrada ishlash uchun S. Murodxonov, Yu. Murodov, Q. Islomova G.Xolboyeva, B.Rasulov va boshqalar jalb qilingandi. F.Fayzining musiqiy tahririyatdagi "Alpomish" o'quv spektakli institut hayotida unutilmas voqea sifatida muhrlandi. Fauziya Fayzi musiqiy ijodiyot yo'nalishi borasida tinimsiz izlanishlar olib borardi, spektakllarga musiqa yaratar, jahon xalqlari spektakllarini o'zbek tiliga tarjima qilar va xalq kuylarini qayta ishlar edi.

1986 yili F.Fayzi sog'ligi tufayli o'qituvchilik faoliyatini to'xtatdi. 1997 yili esa og'ir va uzoq muddatli kasallikdan so'ng vafot etdi. Vaqt ilg'ab bo'lmas harakatda – yillar esa o'taveradi, ammo san'atga butun umrini baxshida etgan mehribon, dono ustoz va qalbi pok inson o'z o'quvchilari va yaqinlari xotirasida abadiy yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Djabbarov A. Uzbekskaya muzikalnaya drama – Ocherki istorii muzikalnoy kulturi Uzbekistana.T., 1968
- Djumayeva L., Baxritdinova N. Uzbekskaya xorovaya literatura (1960 - 1985). T., 1987
- Jabborov A. Musiqii drama va komediya janrlari. O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyoti. T., 2000
- Jumayeva L. O‘zbek xor musiqa tarixidan. T., 2000
- Istoriya vokalnogo i xorovogo iskusstva v Uzbekistane.T., 1991
- Istoriya uzbekskoy muziki. M., 1979
- Korsakova A. Uzbekskiy teatr operi i baleta imeni Alishera Navoi. T., 1959
- Korsakova A. Uzbekskiy operniy teatr. Ocherk istorii. T., 1961
- Lichniy arxiv F.Fayzi.
- Lichniy arxiv N.Sharafiyevoy.
- Mexmandarova L.Seid Rustamov. Baku., 1965
- Pekker Ya. Uzbekskaya opera ot vozniknoveniya do kontsa shestidesyatix godov XX veka M., 1984
- Puzis G. “Nurxon”. Premyera v oblastnom uzbekskom teatre imeni Navoi – Namanganskaya Pravda ., 1944
- Saidova A. Xurmat qozongan san’atkor – Toshkent xaqiqati, 1966, 18 aprel
- Sobirat karakalpanskiy muzikalniy i vokalniy folklor. Beseda s konsertmeysterom Fauziyey Fayzi – Krasniy Karakalpakstan. 1939, 26 maya.
- F.Fayzi, Zaslujennaya artistka Uzbekistana – Pobeda (Feodosiya), 1972, 17 marta
- Xakimova A. Xor a capella. T., 1992